Sog‘ tanda – sog‘lom aql

2026 13 May

“Uzbekistan Airways” AJ va uning tarkibidagi korxonalar xodimlari 10-may kuni "Yangi O‘zbekiston" bog‘ida Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan 3 va 10 km masofaga o‘tkazilgan vatanparvarlik yugurish musobaqasida faol ishtirok etishdi.

Sport tadbirida aviakompaniya va tarkibiy korxonalardan jami 33 nafar ishtirokchi ishtirok etib, birdamlik, vatanparvarlik, ruhiy kuch va sog‘lom turmush tarziga sodiqlikni namoyish etdi.



Bunday tadbirlar jamoani birlashtiradi, korporativ ruhni mustahkamlaydi, xalqimizning tarixi, xotirasi va jasoratiga hurmatni tarbiyalaydi.



“Uzbekistan Airways” AJ kompaniyani munosib ravishda namoyon etayotgan, mamlakatning ijtimoiy va sport hayotida faol ishtirok etayotgan va o‘z namunasi bilan boshqalarni ilhomlantirayotgan xodimlari bilan faxrlanadi. “Uzbekistan Airways” AJ kasaba uyushmasi qo‘mitasiga qo‘llab-quvvatlagani uchun minnatdorchilik bildiramiz.

Biz o‘z mamlakatimiz, uning tarixi, xalqi va kelajagi bilan faxrlanamiz!